

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TARBIYA JARAYONINING O'RNI

Erkinova Sevinch To'lqin qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Tarix fakulteti Milliy g'oya ,ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 3- bosqich talabasi

Nigmanova Umida Bahramovna

Ilmiy rahbar:

Nizomiy nomidagi TDPU Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi dotsenti,
Pedagogika fanlari falsafa doktori

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada jamiyat taraqqiyotida tarbiya jarayonining o'rni, tarbiya mohiyati, tarbiyada yuz beradigan xatolar, Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi maqsadi, vazifasi, bosqichlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: shaxs, jamiyat ,tarbiya, ma'naviy tarbiya , konsepsiya.

Ma'lumki, tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'rildigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyatni ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Mutafakkir olim Abu Nasr Forobiy ta'lim – tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi. Jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallagan insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti- harakatini sekin – asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mushohada qilishi qobiliyatni tarbiyalaydi va aqlni peshlaydi. Aql ongi saqlaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta – sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchilardan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharaflı mehnat va qunt, irodani talab etadi. Bunda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatini e'tiborga olishi zarur. Ma'naviy va insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va munosabat muhim o'rin egallaydi. Bolalarni taqlidchanlik xususiyati

mavjudligi tufayli ularni tarbiyalashda ota – onaning ongi, ma’naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga egadir.

Darhaqiqat, uzoq yillar davomida tarbiya bolalar ta’limdan bo‘sh vaqtida amalgalashgan qo‘sishimcha yuklamaga – ikkinchi darajali ishga aylanib, uzuq-yuluq jarayon bo‘lib kelganligi sir emas. Tarbiyada yo‘l qo‘yilgan xatolar asoratlari kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib, jamoatchilikning haqli e’tirozlariga sabab bo‘lgan. Shunday bir vaziyatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2022-yil 3-maydagi PQ 4307-sonli qarori ijrosini ta’minalash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalgalashgan oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarorining chiqishi bu millat kelajagi, millat ma’naviy taraqqiyoti uchun bir o‘ziga hos tarixiy vogelik bo‘ldi. Mazkur konsepsiya 8 ta bob va ma’naviy tarbiyaning uzluksizligini ta’minalashga qaratilgan 61 ta maqsadli va manzilli tadbirlar rejasidan iborat bo‘lib, uning amalgalashgan oshirilishi 4 bosqichdan iborat bo‘ladi. Konsepsiya O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar va uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetentsiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish ishiga katta ahamiyat berilgan. Buning uchun oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rtalama, o‘rtalama maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik hamkorlikni yangi darajaga ko‘tarildi

Konsepsiya oldiga qo‘yilgan vazifalar:

- ma’naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;
- tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;
- uzluksiz tarbiya tizimida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish;
- tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;
- oila, ta’lim muassasalari va mahalla, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo‘lga qo‘yish;
- ma’naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishdan iborat.

“Uzluksiz ma’naviy tarbiya” Konsepsiysi to‘rt bosqichda amalgalashgan oshiriladi:

- birinchi bosqich – oilalarda (ikki davr: 1-davr – homila davri,
- 2-davr – (bola tug‘ilganidan 3 yoshgacha bo‘lgan davr);

- ikkinchi bosqich – maktabgacha ta’lim 3-6 (7) yoshgacha bo‘lgan davr;

- uchinchi bosqich – umumiy o‘rta ta’lim tizimida (ikki davr: 1-davr –

7. (6)-10 yosh boshlang‘ich sinf, 2-davr – 11-17 yosh o‘rta va yuqori sinflar);

-To‘rtinchi bosqich – ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlari, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari tizimida (ikki davr: 1-davr – o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlari – 17-30 yosh, 2-davr – o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15-22 (24) yosh).

Konsepsiya tarbiyada yo‘l qo‘yilgan xatolar birdaniga ko‘rinmasligi, noto‘g‘ri tarbiyaning asoratlari oradan ko‘p yillar o‘tgach, jamiyatda inson omili tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarda ko‘rinishi mumkinligi qayd qilib o‘tilgan.

Jamiyat taraqqiyotida tarbiya jarayoni muhim hisoblanadi. Farzandlarimiz tarbiyasiga etiborli bo‘laylik, aynan shu mezon bolalarimizni ma’nani, ruhan sog‘lom, o‘z ota-bobolariga, tariximizga, Vatanimizga, ona tilimizga, o‘z milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qaraydigan barkamol bo‘lib o‘sib unishining asosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi , 2022
2. Milliy yuksalish strategiyasi fanidan o‘quv – uslubiy majmua, Toshkent- 2023.
3. Lex.uz